

AN'ANA VA INNOVATSIYA ORALIG'IDA: MARKAZIY OSIYO
JADIDCHILIGIDA ISLOM FENOMENI

Qo'chqarov Temirbek Baxromjon o'g'li

Oriental universiteti katta o'qituvchisi

Norsafarova Sabohat Bo'ron qizi

Oriental universiteti talabasi

“Islom bizni orqaga emas, oldinga yetaklaydi”³⁹

Abdurauf Fitrat

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda islom dinining kirib kelishi, uning tarixiy taraqqiyoti, jadidchilik davridagi o'rni hamda zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, islomning xalqaro aloqalardagi roli va global integratsiya jarayonlaridagi o'rni yoritiladi. Natijada islom jadidchilikda an'ana va innovatsiyani uyg'unlashtiruvchi sivilizatsion fenomen sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so'zlar: *islom, Markaziy Osiyo, jadidchilik, modernizatsiya, xalqaro aloqalar, ta'naviyat, ijtimoiy islohot, diniy tafakkur, innovatsiya.*

Аннотация. *В статье комплексно рассматриваются процессы распространения ислама в Центральной Азии, его историческое развитие, роль в джадидском движении, а также значение в современном обществе и международных отношениях. Ислам интерпретируется как цивилизационный феномен, объединяющий традиции и инновации.*

Ключевые слова: *ислам, Центральная Азия, джадидизм, модернизация, международные отношения, социальные реформы, религиозное мышление.*

Annotation. *This article comprehensively analyzes the spread of Islam in Central Asia, its historical development, its role in the Jadid movement, and its importance in modern society and international relations. Islam is interpreted as a civilizational phenomenon integrating tradition and innovation.*

Keywords: *Islam, Central Asia, Jadidism, modernization, international relations, social reforms, religious thought.*

Kirish:

Markaziy Osiyo qadimdan sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lib kelgan. Bu hududda turli dinlar mavjud bo'lgan bo'lsa-da, VII–VIII asrlardan boshlab islom dini ustun mavqega ega bo'la boshladi. Arablar istilosi natijasida islom keng tarqaldi va qisqa vaqt ichida nafaqat diniy, balki siyosiy va madaniy tizimning asosiga aylandi. Markaziy Osiyoda

³⁹Abdurauf Fitratga nisbat beriladigan so'zlar.

islom nafaqat e'tiqod tizimi, balki ilm-fan, falsafa va madaniyat rivojining asosiy manbai bo'lib xizmat qildi. Bu jarayon keyinchalik jadidchilik harakatida yangi bosqichga ko'tarildi.

Ushbu maqolada islom dini jadidchilik harakatida faqat diniy tizim sifatida emas, balki sivilizatsion-modernizatsion fenomen sifatida talqin qilinadi; shuningdek, an'ana va innovatsiya o'rtasidagi dialektik bog'liqlik yangi ilmiy asosda yoritiladi.

1. Islomning Markaziy Osiyoda tarqalishi va tarixiy rivoji

VII asr oxiridan boshlab arab qo'shinlari Movarounnahr hududiga kirib keldi. VIII asrda Qutayba ibn Muslim yurishlari orqali islom dini keng yoyildi. Mintaqaning islom sivilizatsiyasiga qo'shilishi quyidagi asosiy bosqichlarda kechgan:

VIII–IX asrlar: islom davlat dini sifatida mustahkamlandi.

IX–XII asrlar: islom uyg'onish davri — ilm-fan gullab-yashnadi; aynan shu davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi buyuk allomalar yetishib chiqdi.

XIII–XIV asrlar: mo'g'ullar istilosidan keyingi tiklanish.

XIX–XX asr boshlari: jadidchilik davri.

Islom ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va axloqiy hayotning barcha sohalarini qamrab oluvchi yaxlit ta'limot sifatida shakllandi. Jahon dinlari orasida nisbatan yosh bo'lishiga qaramay, hozirda e'tiqod qiluvchilari soni jihatidan u xristianlikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Din insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi, borliq va mavjudlik mohiyatiga oid savollarga javob beruvchi ijtimoiy ong shakli sifatida har bir jamiyatda o'ziga xos e'tiqodiy tizim, axloqiy qoidalar, marosim va an'analar orqali namoyon bo'ladi.

XIX asr oxiri⁴⁰ va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg'onishning muhim bosqichi bo'lib, u ijtimoiy, madaniy va diniy hayotda chuqur o'zgarishlarni boshlab berdi. Bu jarayon Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida kechib, mahalliy jamiyatni modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

2. Islom — jadidchilikning g'oyaviy asosi

Jadidlar islomni jamiyatni yangilovchi kuch sifatida talqin etib, Qur'on va hadislarni zamon talablari asosida tushunishga harakat qildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi namoyandalar islomni jamiyatni yangilashning ma'naviy poydevori deb bildilar. Ular diniy qadriyatlarni inkor etmagan holda, ularni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga intildilar. Islom ilm-fanga katta ahamiyat bergani bois, jadidlar shu asosga tayanib, diniy va dunyoviy bilimlarni yangicha shaklda ommalashtirishga, an'anaviy madrasa ta'limini isloh qilishga harakat qildilar; shu yo'l bilan ular madaniy yangilanish va intellektual rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdilar.

⁴⁰Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. — Toshkent.

Markaziy Osiyo tarixida islom faqat diniy tizim emas, balki sivilizatsion struktura vazifasini ham bajargan. Bu yondashuv Devin DeWeese tadqiqotlarida chuqur asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra islom ijtimoiy tashkilot, madaniy xotira va siyosiy legitimlikning asosiy poydevori bo‘lib xizmat qilgan.

“Islam functioned as a foundational framework for social organization, cultural memory, and political legitimacy”⁴¹.

Bu holat jadidchilikni tushinishda muhim ahamiyatga ega, zero jadidlar islomni inkor etmagan, balki uni yangi ijtimoiy funksiyaga moslashtirgan.

3. Ta’lim islohoti va “Usul-i jadid” maktablari

Jadidchilikning eng muhim yo‘nalishi ta’lim tizimini isloh qilish edi; bu jarayon “Usul-i jadid” (yangi usul) maktablari orqali amalga oshirildi. G‘arb ilmiy adabiyotida ushbu jarayon musulmon jamiyatlaridagi “pedagogik inqilob” va “ta’lim modernizatsiyasi loyihasi”⁴² sifatida baholanadi. Abdulla Avloniyning fikricha, tarbiya millat uchun hayot-mamot masalasidir; bu yondashuvda ta’lim faqat bilim emas, balki millatni saqlab qolish vositasi va sivilizatsion omon qolish strategiyasi sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy postkolonial yondashuv jadidchilikni Rossiya imperiyasi bosimi sharoitida shakllangan madaniy qarshilik modeli sifatida tahlil qiladi. Robert Crews fikriga ko‘ra, Markaziy Osiyodagi islohotchilik harakatlari harbiy qarshilik orqali emas, balki intellektual va ma’rifiy o‘zgarish orqali yuzaga kelgan.

“Reformist movements in Central Asia emerged not through military resistance but through intellectual and educational transformation”⁴³.

Demak, jadidlar qurol bilan emas, g‘oya bilan kurashgan; bu esa harakatni “yumshoq qarshilik” (soft resistance) darajasiga ko‘taradi.

4. Islom modernizmi (Islamic Modernism)

G‘arb ilmiy maktabida “Islamic Modernism” konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Bu nazariya ijtimoiy (mustaqil fikrlash), ilm va din uyg‘unligi hamda jamiyatni isloh qilish tamoyillariga asoslanadi. Abdurauf Fitrat⁴⁴ ushbu g‘oyani amaliy darajada ifodalab, islomni aql va taraqqiyot dini sifatida talqin qilgan.

1901–1917-yillarda yuzlab yangi usul maktablari ochildi; bu Markaziy Osiyoda ta’lim tizimining tub burilish nuqtasi bo‘ldi. Yangi usul maktablarida diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o‘qitilib, zamonaviy ta’limning asosi yaratildi. Jadidlar

⁴¹DeWeese D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. — Pennsylvania State University Press, 1994.

⁴²UNESCO. Education and Cultural Reform Reports (2022–2025).

⁴³Crews R. For Prophet and Tsar: Islam and Empire in Russia and Central Asia. — Harvard University Press, 2006.

⁴⁴Fitrat Abdurauf. Asarlar to‘plami. — Toshkent.

taqlidchilikka qarshi chiqib, ijtihod g‘oyasini ilgari surdilar; bu esa diniy tafakkurning rivojlanishiga olib keldi.

5. Jadid matbuoti va ma’rifat

Jadidchilik g‘oyalarining tarqalishida matbuot alohida o‘rin tutdi. 1901-yildan boshlab yangi usul maktablari keng yoyilib, 1913-yilga kelib ularning soni sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga jadid matbuoti — “Tarjimon”, “Sadoyi Turkiston”⁴⁵ kabi nashrlar keng tarqaldi. Ismoil G‘aspirali asos solgan “Tarjimon” gazetasi butun musulmon dunyosida ma’rifat tarqatishda muhim rol o‘ynadi va diniy hamda ijtimoiy ongning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

6. SWOT-tahlil

Jadidchilik davridagi islom fenomenining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat hamda tahdidlari quyidagi SWOT-tahlilda umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval

<p>Kuchli tomonlari (Strengths)</p> <ul style="list-style-type: none"> – islomning ma’rifiy-ilmiy talqini, aql va tafakkurga urg‘u; – ta’lim tizimini yangilash (yangi usul maktablari), savodxonlik va dunyoviy fanlarga e’tibor; – milliy uyg‘onish g‘oyasi hamda islomiy identitetning milliy ong bilan uyg‘unlashuvi; – jadid matbuoti orqali tafakkur erkinligi va o‘zlikni anglashning kuchayishi. 	<p>Zaif tomonlari (Weaknesses)</p> <ul style="list-style-type: none"> – an’anaviy diniy qatlamlarning qarshiligi, “bid’at” va “yangilik” ziddiyati; – harakatning tashkiliy zaifligi va markazlashmaganligi; – mustamlaka, so‘ngra sovet tizimining siyosiy bosimi va repressiyalar; – ijtimoiy bazaning torligi, asosan ziyolilar qatlamiga tayanish.
<p>Imkoniyatlar (Opportunities)</p> <ul style="list-style-type: none"> – islom modernizatsiyasining tarixiy modeli; diniy va dunyoviy bilimlarning integratsiyasi; – zamonaviy pedagogik yondashuvlar uchun metodologik asos; – milliy va diniy identitetni uyg‘unlashtirish, yosh avlod uchun motivatsion manba; – jadidchilik g‘oyalarini global islomshunoslik tadqiqotlariga kiritish. 	<p>Tahdidlar (Threats)</p> <ul style="list-style-type: none"> – islomning konservativ yoki ekstremistik talqini jadid merosini soy ostida qoldirishi; – harakat mohiyatini siyosiy-mafkuraviy maqsadlarda buzib ko‘rsatish; – global madaniy homogenlashu natijasida mahalliy ma’rifiy modelning zaiflashuvi; – an’ana va innovatsiya muvozanasi yo‘qolsa, identitet inqirozi xavfi.

⁴⁵G‘aspirali Ismoil. “Tarjimon” gazetasi. — Bahchasaroy, 1883–1918.

Umuman olganda, jadidchilik Markaziy Osiyoda islom fenomenini yangi bosqichga ko'targan intellektual harakat bo'lib, u islomni faqat an'ana sifatida emas, balki harakatdagi tafakkur tizimi sifatida qayta kashf etdi. Biroq tarixiy zaifliklar va tashqi bosimlar sababli bu model to'liq amalga oshmay qoldi. Shunga qaramay, jadid merosi bugun ham an'ana va innovatsiya o'rtasidagi muvozanatni topishda muhim intellektual yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

7. Islomning hozirgi davrdagi roli

Hozirgi kunda ham islom dini Markaziy Osiyoda kuchli ijtimoiy va ma'naviy omil sifatida saqlanib qolmoqda; u aholining turmush tarzida, bayram va marosimlarda hamda axloqiy me'yorlarda o'z aksini topmoqda. Mustaqillikdan so'ng diniy erkinlikning tiklanishi, masjid va diniy o'quv yurtlarining ochilishi, diniy adabiyotlarning chop etilishi bu jarayonni yanada mustahkamladi. So'nggi tadqiqotlar (Adeeb Khalid⁴⁶, UNESCO hisobotlari) shuni ko'rsatadiki, jadidchilik musulmon modernizmining Markaziy Osiyodagi modeli hisoblanadi va islom bu jarayonda identitet hamda ijtimoiy birlik omili bo'lib xizmat qilgan.

8. Islom san'ati va me'morchiligi

Islom dini san'at va me'morchilik sohalarida ham o'z izini qoldirdi. Mintaqada qurilgan masjid, madrasa, maqbara va minoralar noyob me'moriy yechimlari bilan ajralib turadi. Registon majmuasi, Kalon minorasi, Go'ri Amir maqbarasi singari obidalar islom me'morchiligining yuksak namunalari bo'lib, ular nafaqat diniy markaz, balki ilm-fan, madaniyat va hunarmandchilik rivojining timsoli sifatida ham xizmat qilgan. Islom orqali shakllangan qadriyatlar tizimi hanuzgacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda va bugungi jamiyatning ma'naviy asoslaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Markaziy Osiyo jadidchiligi nafaqat tarixiy islohot harakati, balki an'ana va yangilanish o'rtasida kechgan ma'naviy sinov edi. U islomni inkor etish emas, aksincha, uni zamon talabi bilan qayta anglash va hayotga moslashtirishga bo'lgan intilish sifatida maydonga chiqdi. Shu ma'noda jadidchilik islom fenomenini muzlatilgan tushuncha emas, balki harakatdagi, o'zgaruvchi va taraqqiy etuvchi ma'naviy kuch sifatida qayta kashf etdi.

Bu harakatning chuqur mohiyati shundaki, u islomni faqat marosimlar tizimi emas, balki ilm, tafakkur va taraqqiyot manbai sifatida ko'rdi. Jadidlar uchun Qur'on va islomiy meros ortga tortuvchi an'ana emas, balki oldinga yetaklovchi ma'rifat manbai edi. Shu bois ular yangi usul maktablari, zamonaviy fanlar va dunyoviy bilimlarni islomiy axloq bilan uyg'unlashtirishga intildilar. Biroq bu yo'l oson kechmadi: an'anaviy qarashlar bilan yangilikka intilish o'rtasidagi ziddiyat jamiyatni ichidan ikkiga bo'ldi.

⁴⁶Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. — University of California Press, 1998.

Aynan shu kesishuv nuqtasida jadidchilik islomni “qotib qolgan shakl” emas, balki “ochiq tafakkur tizimi” sifatida qayta talqin qildi.

Mazkur tajriba muhim metodologik xulosani ilgari suradi: islom fenomeni doimo an’ana va innovatsiya o’rtasidagi muvozanatda yashaydi; agar an’ana ildiz bo’lsa, innovatsiya uning bargi va mevasidir. Shu sababli jadidchilik merosi bugungi Markaziy Osiyo uchun faqat tarixiy xotira emas, balki amaliy saboqdir — ma’naviyatni saqlab qolish uni muzlatishda emas, balki zamon bilan dialogga kiritishda namoyon bo’ladi. Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo jadidchiligida islom fenomeni o’tmish va kelajak o’rtasidagi ko’prik vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. — Berkeley: University of California Press, 1998.
2. DeWeese D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde. — Pennsylvania State University Press, 1994.
3. Crews R. For Prophet and Tsar: Islam and Empire in Russia and Central Asia. — Harvard University Press, 2006.
4. Behbudiy Mahmudxo’ja. Tanlangan asarlar. — Toshkent.
5. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent.
6. Fitrat Abdurauf. Asarlar to’plami. — Toshkent.
7. G’aspirali Ismoil. “Tarjimon” gazetasi. — Bahchasaroy, 1883–1918.
8. UNESCO. Education and Cultural Reform Reports (2022–2025).